Mazkur ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim jarayonida kommunikativ madaniyat, netiket, hamkorlik va raqamli etik me'yorlar talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Biroq aksariyat tadqiqotlarda kommunikativ strategiyalar asosan umumiy raqamli muloqot yoki onlayn ta'lim samaradorligi nuqtayi nazaridan o'rganilgan bo'lib, talabalarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdagi pedagogik mexanizmlar yetarli darajada tizimli tahlil qilinmagan. Ayniqsa, o'zini taqdim etish, ishontirish, manipulyativ ta'sir, konflikt va hamkorlik strategiyalarining talaba shaxsiga ko'rsatadigan kommunikativ-pedagogik ta'siri alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham raqamli kommunikatsiya va kommunikativ madaniyat masalalari turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilgan.

Jumladan, A. Maxmudov raqamli madaniyat va ijtimoiy tarmoqlarning ta'lim jarayoni hamda ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini ^[9], M. A. Abdullaeva kommunikativ yondashuv tamoyillarining til o'rganish va o'qitish jarayonidagi ahamiyatini yoritib, kommunikativ tushunchalar hamda o'rganish strategiyalarining samarali va ijobiy ta'lim muhitini shakllantirishdagi o'rnini ^[1], Z. Komilova raqamli madaniyatning shakllanish jarayoni, uning jamiyat hayotiga kirib kelishi, axborot almashinuvi va muloqot uslublariga ko'rsatadigan ta'sirini asoslab bergan ^[5].

Shuningdek, M. Sharifova raqamli kommunikatsiya muhitining yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirishdagi o'rnini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilgan ^[15].

Ko'rinadiki, mazkur tadqiqotlar raqamli kommunikatsiya, kommunikativ madaniyat va ta'lim jarayonidagi muloqotning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Biroq ushbu tadqiqotlarda onlayn muloqot strategiyalarining talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari kompleks tarzda yetarlicha ochib berilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqotning o'ziga xosligi raqamli kommunikatsiya jarayonida qo'llaniladigan o'zini taqdim etish, ishontirish, manipulyativ, konflikt va hamkorlik strategiyalarining talaba kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rnini pedagogik



nuqtayi nazardan tizimli ravishda tahlil qilish bilan belgilanadi. Tadqiqotda mazkur strategiyalar nafaqat kommunikativ ta'sir mexanizmi, balki talabning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi didaktik vosita sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, tadqiqotning pedagogik yo'nalishi kommunikativ strategiyalarning raqamli ta'lim muhitida talabalarning media savodxonligi, kommunikativ madaniyati, tanqidiy fikrlashi hamda ijtimoiy moslashuv kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgani bilan xarakterlanadi. Bu esa mavzuning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshirib, onlayn muloqot strategiyalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rganish zarurligini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda onlayn muloqot strategiyalarining talaba kommunikativ kompetensiyasiga ta'sirini o'rganishda kommunikativ-pragmatik, diskursiv hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini kommunikativ strategiyalar va taktikalarga oid mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tashkil etadi.

Xususan, V. B. Kashkin kommunikativ strategiyani kommunikativ maqsadga erishishga xizmat qiluvchi og'zaki va noverbal vositalar tizimi sifatida talqin qiladi^[6]. Ushbu yondashuv tadqiqotda raqamli muloqot vositalarining kommunikativ funksiyalarini aniqlashda metodologik asos vazifasini bajardi.

S. A. Datsyuk tomonidan taklif etilgan taqdimot, manipulyativ va konvension strategiyalar tasnifi esa onlayn kommunikatsiyada talabalar tomonidan qo'llaniladigan kommunikativ xatti-harakatlarni guruhlash hamda tahlil qilish imkonini berdi^[16]. Mazkur tasnif asosida raqamli ta'lim muhitidagi kommunikativ ta'sir shakllari o'rganildi.

A. K. Mixalskayaning yaqinlik, masofa va tanlashdan bosh tortish strategiyalariga oid qarashlari talabalarning onlayn muloqotdagi shaxsiy kommunikativ pozitsiyasini aniqlashda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qildi^[10].

Shuningdek, M. A. Kravets, S. Fergyson, J. Kornelissen va boshqalarning kommunikatsiyani strategik rejalashtirishga oid yondashuvlari kommunikativ strategiyalarni maqsadli auditoriyaga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

N. N. Kirillovning kommunikativ strategiyalarni hamkorlik va qarama-qarshilik tamoyillari asosida tasniflashi esa onlayn muloqot jarayonida konflikt va hamkorlik strategiyalarining pedagogik ahamiyatini ochib berishda qo'llanildi^[17].

Tadqiqot jarayonida ijtimoiy tarmoqlar va messenger platformalaridagi kommunikativ holatlar diskursiv tahlil asosida o'rganilib, onlayn muloqot strategiyalarining talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Kommunikativ strategiyaning amaliy realizatsiyasi, odatda, kommunikativ taktika orqali namoyon bo'ladi. Kommunikativ taktika strategik maqsadlarni real muloqot jarayonida amalga oshirishga xizmat qiluvchi aniq nutqiy usullar, kommunikativ texnikalar hamda ta'sir mexanizmlari majmuasini ifodalaydi. Shu jihatdan strategiya kommunikativ faoliyatning umumiy yo'nalishi va yakuniy maqsadini belgilasa, taktika ushbu maqsadga erishishning konkret lingvopragmatik vositalarini aniqlaydi. Boshqacha aytganda, strategiya makrokommunikativ darajada faoliyat yuritsa, taktika mikrokommunikativ bosqichda adresantning muayyan nutqiy vositalarni tanlashi, urg'u berish usullari hamda kommunikativ ta'sir shakllarini boshqaradi. Muloqot jarayoni tarixiy taraqqiyot davomida doimo maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy faoliyat shakli sifatida namoyon bo'lgan. Kommunikatsiya ishtirokchilari unda o'z pozitsiyasini ifodalash, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, muayyan qaror yoki harakatga undash hamda kommunikativ mavqeini mustahkamlash kabi vazifalarni amalga oshirishga intilgan. Ayniqsa, XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab pragmalingsvistika va diskurs tahlili yo'nalishlarining rivojlanishi natijasida kommunikativ jarayonlarni "strategiya" va "taktika" kategoriyalari orqali izohlash ilmiy tadqiqotlarning muhim metodologik yo'nalishiga aylandi.

Shu nuqtayi nazardan, elektron muloqot jarayonida kommunikativ strategiya va taktikalar qo'llanilishini o'rganish alohida pedagogik hamda pragmatik ahamiyat kasb etadi. Chunki raqamli ta'lim muhiti nafaqat axborot almashinuvi maydoni, balki kommunikativ ta'sir, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy identifikatsiya shakllanadigan virtual diskurs makoni sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Mazkur jarayonlarni tahlil qilish esa talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, media savodxonligi va onlayn muloqot madaniyatini rivojlantirish omillarini aniqlash imkonini beradi. Yuqorida bayon etilgan nazariy qarashlar elektron muloqot matnlarini tahlil qilish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar asosida ijtimoiy tarmoqlar va messenger platformalaridagi kommunikativ materiallarning tahlili elektron muloqot jarayonida ayrim kommunikativ strategiyalarning ustuvorligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim muhitida onlayn muloqot strategiyalari nafaqat kommunikativ jarayonning tashkiliy mexanizmi, balki talabalarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi muhim pedagogik omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Har bir kommunikativ strategiya o'zining pragmatik mazmuni va funksional xususiyatlariga ko'ra talabning kommunikativ xulq-atvori, ijtimoiy moslashuvi,

muloqot madaniyati hamda axborot bilan ishlash kompetensiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan onlayn kommunikatsiya strategiyalarini pedagogik nuqtayi nazardan o'rganish raqamli ta'lim muhitida samarali muloqotni tashkil etish, media savodxonlikni rivojlantirish hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida ijtimoiy tarmoqlar va messenjer platformalaridagi elektron muloqot namunalari kommunikativ-pragmatik tahlili amalga oshirildi. Tahlil natijalari raqamli ta'lim muhitida talabalar tomonidan turli kommunikativ strategiyalardan faol foydalanilishini ko'rsatdi. Ayniqsa, o'zini taqdim etish, ishontirish, manipulyativ, konflikt va hamkorlik strategiyalari onlayn kommunikatsiya jarayonida eng ko'p uchraydigan kommunikativ modellardan biri sifatida namoyon bo'ldi

Aniqlanishicha, mazkur strategiyalar nafaqat axborot almashinuvi yoki kommunikativ ta'sir vositasi sifatida, balki talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, media savodxonligi, ijtimoiy moslashuvi hamda muloqot madaniyatini shakllantiruvchi pedagogik omil sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois quyida elektron muloqot jarayonida kuzatilgan (tadqiqot materiali sifatida Telegram va Instagram platformalaridagi talabalar guruhlaridan olingan anonim elektron muloqot namunalari tanlab olindi) asosiy kommunikativ strategiyalar hamda ularning pedagogik-pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi.

O'zini taqdim etish strategiyasi – talabani shaxsiy identifikatsiyasini anglash, o'z-o'zini baholashni shakllantirish hamda ijtimoiy rolini belgilash jarayonlarini faollashtiruvchi muhim kommunikativ mexanizmlardan biri hisoblanadi. Talaba raqamli muloqot jarayonida o'zini qanday namoyon etishi orqali ijtimoiy muhitda qabul qilinish, muloqotga kirishish hamda o'z pozitsiyasini himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu jihatdan mazkur strategiya shaxsning kommunikativ imiji va virtual identifikatsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Raqamli kommunikatsiyada o'zini taqdim etish strategiyasining rasmiylashtirilgan ko'rinishlari, asosan, ijtimoiy tarmoqlardagi "shaxsiy sahifa" elementlari orqali namoyon bo'ladi. Jumladan, profil ma'lumotlari, aloqa vositalari, ta'lim darajasi, yashash hududi, qiziqishlar va hayotiy pozitsiyani ifodalovchi axborotlar talabani virtual kommunikativ obrazini shakllantiradi. Tahlil qilingan ijtimoiy tarmoq materiallari shuni ko'rsatadiki, talabalar o'zining akademik yutuqlari, sertifikatlari, konferensiyalardagi ishtiroki yoki ijtimoiy faolligiga oid postlar orqali o'zini ijobiy kommunikativ pozitsiyada namoyon etishga intiladi. Masalan, Telegram yoki Instagram platformalarida quyidagi kabi postlar uchraydi: "Xalqaro konferensiyada ishtirok etdim", "IELTS sertifikatini muvaffaqiyatli qo'lga kiritdim". Mazkur kommunikativ birliklar talabani o'z akademik salohiyati va ijtimoiy faolligini namoyish etish orqali auditoriya e'tiborini jalb qilish, ijtimoiy maqomini mustahkamlash hamda pozitiv kommunikativ imij yaratishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bunday strategiyalar talabalarda o'zini anglash, o'z-o'zini rivojlantirish va kommunikativ moslashuv kompetensiyalarining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ishontirish strategiyasi – talabalarda argumentatsion fikrlash, mantiqiy dalillash, tanqidiy yondashuv hamda nutqiy ta'sir vositalaridan ongli foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim kommunikativ strategiyalardan biri hisoblanadi. Mazkur strategiya orqali talaba o'z fikrini asosli va izchil ifodalash, munozara olib borish hamda auditoriyani muayyan qarorga yo'naltirish uchun kommunikativ resurslardan samarali foydalanishni o'rganadi. Onlayn muloqot jarayonida ishontirish strategiyasi ko'pincha ma'lum bir fikr, qaror yoki harakatni qo'llab-quvvatlashga undash orqali namoyon bo'ladi. Tahlil qilingan talabalar guruhidagi yozishmalarda argumentatsiyaga asoslangan kommunikativ ta'sir elementlari muntazam uchrashi kuzatildi. Masalan, quyidagi muloqot namunasi bunga misol bo'la oladi: "Agar vazifani bugun topshirsak, ertaga boshqa fanlarga ko'proq vaqt ajrata olamiz", "Bu usul vaqtni tejaydi va hammaga qulay bo'ladi". Mazkur kommunikativ vaziyatda adresant mantiqiy dalillash hamda foydalilik argumentlari orqali guruh a'zolarini muayyan qarorni qo'llab-quvvatlashga ishontirishga harakat qilmoqda. Ushbu strategiya talabalarda mantiqiy asoslash, dalillarga tayangan holda fikr bildirish va kommunikativ ta'sir ko'rsatish kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ishontirish strategiyasi raqamli ta'lim muhitida samarali hamkorlikni tashkil etish hamda konstruktiv kommunikatsiyani rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Manipulyativ strategiya – raqamli kommunikatsiya jarayonida salbiy kommunikativ ta'sir shakllarini anglash hamda ularga qarshi himoyalash ko'nikmalarini shakllantirish nuqtayi nazaridan muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Mazkur strategiyani tahlil qilish talabalarda media savodxonlik, axborotning ishonchligini tekshirish, feyk xabarlarini aniqlash hamda emotsional bosim ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noto'g'ri qarorlarning oldini olish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tahlil qilingan raqamli muloqot namunalari manipulyativ strategiyalarning turli ko'rinishlari uchrashi kuzatildi. Xususan, ayrim kommunikativ birliklarda adresatga psixologik bosim o'tkazish yoki uni emotsional ta'sir orqali muayyan harakatga undash holatlari namoyon bo'ladi. Masalan, talabalar guruhidagi quyidagi yozishmalar bunga misol bo'la oladi: "Agar



bugun ovoz bermasang, guruhimiz yutqazadi”, “Hamma yubordi, faqat sen qolib ketding”. Mazkur kommunikativ birliklarda aybdorlik hissini uyg'otish, jamoaviy bosim hosil qilish hamda emotsional ta'sir orqali adresat xulq-atvorini boshqarishga urinish kuzatiladi. Bunday strategiyalarni tahlil qilish talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil baholash hamda manipulyativ kommunikativ ta'sirlarga nisbatan psixologik barqarorlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mazkur strategiya raqamli ta'lim muhitida media xavfsizlik va kommunikativ himoyalanih kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini ham ko'rsatadi.

Konflikt strategiyasi – talabalarning kommunikativ madaniyatini baholashda muhim indikatorlardan biri hisoblanadi. Mazkur strategiya murosaga kelish, tolerant munosabat bildirish, emotsional nazoratni saqlash hamda nizoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan konflikt strategiyasi talabalarning ijtimoiy moslashuvi va madaniyatli muloqot kompetensiyasini rivojlantiruvchi muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi. Tahlil qilingan elektron muloqot materiallarida konflikt strategiyasining turli ko'rinishlari kuzatildi. Xususan, Telegram'dagi talabalar guruhlaridan birida topshiriq muddatining o'zgarishi bilan bog'liq muhokama jarayonida ayrim ishtirokchilar tomonidan emotsional va agressiv kommunikativ reaksiyalar bildirildi: “Har safar muddat o'zgaraveradi, bu adolatsizlik!”, “Oldinroq aytilganda hamma ulgurardi”. Mazkur kommunikativ vaziyatda emotsional bosim, norozilik kayfiyati hamda qarama-qarshi kommunikativ pozitsiyalarning shakllangani kuzatildi. Shu bilan birga, ayrim talabalar tomonidan murosaga chaqiruvchi va konfliktni yumshatishga qaratilgan kommunikativ taktikalar qo'llangani ham aniqlandi. Bu esa onlayn muloqot jarayonida konflikt strategiyasi bilan bir qatorda hamkorlik va murosaviy kommunikatsiya elementlari ham parallel ravishda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Mazkur holatlar talabalarda emotsional barqarorlik, tolerantlik, nizoli vaziyatlarni konstruktiv boshqarish hamda kommunikativ etik me'yorlarga rioya qilish kompetensiyalarini shakllantirish zarurligini tasdiqlaydi. Shu bois raqamli ta'lim muhitida konflikt strategiyalarini pedagogik jihatdan tahlil qilish kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hamkorlik strategiyasi – jamoaviy o'qish va kollaborativ ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim kommunikativ omillardan biri hisoblanadi. Mazkur strategiya talabalarda guruhda ishlash, fikr almashish, umumiy qarorga kelish, o'zaro yordam ko'rsatish hamda mas'uliyatni taqsimlash kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan hamkorlik strategiyasi raqamli ta'lim muhitida samarali kommunikativ muhitni shakllantirishning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tahlil qilingan elektron muloqot materiallari talabalarning onlayn kommunikatsiyada hamkorlikka asoslangan kommunikativ taktikalarni faol qo'llashini ko'rsatdi. Xususan, guruhli topshiriqlarni bajarish jarayonida vazifalarni taqsimlash, o'zaro yordam ko'rsatish va axborot almashish elementlari yaqqol kuzatiladi. Masalan, Telegram guruhidagi quyidagi yozishma bunga misol bo'la oladi: “Men prezentatsiya dizaynini qilaman, siz matn qismini tayyorlaysizmi?”, “Mayli, manbalarni ham umumiy papkaga joylayman”. Mazkur kommunikativ vaziyatda vazifalarni o'zaro taqsimlash, mas'uliyatni bo'lishish hamda jamoaviy faoliyatni muvofiqlashtirish elementlari namoyon bo'lmoqda. Ushbu holat hamkorlik strategiyasining kollaborativ ta'lim jarayonidagi amaliy ko'rinishini ifodalaydi. Shuningdek, hamkorlik strategiyasi talabalar o'rtasida ijobiy kommunikativ muhitni shakllantirish, ijtimoiy moslashuvni kuchaytirish hamda konstruktiv muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada raqamli ta'lim muhitida ta'lim samaradorligini oshirish va kommunikativ madaniyatni shakllantirish imkoniyatlari kengayadi.

Tadqiqot davomida olib borilgan kommunikativ-pragmatik tahlillar natijasida raqamli ta'lim muhitida hamkorlik strategiyasi talabalar orasida eng faol qo'llaniladigan kommunikativ modellardan biri ekani aniqlandi. Ayniqsa, guruhli topshiriqlarni (kollaborativ raqamli yozuv faoliyati, konfliktli vaziyatni yechish keyslari, “fake news”ni aniqlash topshirig'i, peer-feedback topshirig'i) bajarish jarayonida vazifalarni taqsimlash, o'zaro yordam ko'rsatish va axborot almashishga asoslangan kommunikativ birliklar muntazam uchrashi kuzatildi. Bu esa talabalarda jamoaviy ishlash, mas'uliyatni bo'lishish hamda konstruktiv muloqot kompetensiyalarining rivojlantirishiga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, tahlillar jarayonida ishtirokchilarning strategiyasi ko'proq akademik muhokamalar va guruhiy qaror qabul qilish vaziyatlarida namoyon bo'lishi aniqlandi. Mazkur strategiya talabalarda argumentatsion fikrlash, mantiqiy asoslash va nutqiy ta'sir ko'rsatish kompetensiyalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. Manipulyativ strategiyalar esa, asosan, emotsional bosim, jamoaviy ta'sir va aybdorlik hissini uyg'otish orqali namoyon bo'lishi qayd etildi. Bunday kommunikativ birliklarning mavjudligi talabalar orasida media savodxonlik va axborotni tanqidiy baholash kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, konflikt strategiyalari ko'pincha topshiriq muddatlari, guruhiy mas'uliyat va akademik yuklama bilan bog'liq muhokamalarda yuzaga kelishi aniqlandi. Shu bilan birga, ayrim talabalar tomonidan konfliktni yumshatishga qaratilgan murosaviy kommunikativ taktikalar qo'llanishi ham kuzatildi. Bu holat talabalarda tolerantlik, emotsional nazorat va nizoli vaziyatlarni konstruktiv boshqarish kompetensiyalarining shakllanayotganini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari umumlantirilganda, onlayn muloqot strategiyalari talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, ijtimoiy moslashuvi hamda raqamli madaniyatni rivojlantirishda muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi.

XULOSA

Onlayn muloqot strategiyalarini pedagogik jihatdan tahlil qilish talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, media savodxonligi hamda ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim nazariy va amaliy asoslaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim muhitida kommunikativ strategiyalar nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki talabaning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi muhim pedagogik omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Xususan, o'zini taqdim etish, ishonirish, hamkorlik va konflikt strategiyalari talabaning nutqiy faolligini oshirish, ijtimoiy moslashuvini ta'minlash, muloqot madaniyatini rivojlantirish hamda mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur strategiyalar orqali talabalar raqamli kommunikatsiya jarayonida o'z fikrini asosli ifodalash, konstruktiv munozara olib borish, jamoaviy faoliyatda samarali ishtirok etish hamda kommunikativ muammolarni murosaviy hal qilish kompetensiyalarini egallaydi. Shu bilan birga, manipulyativ strategiyalarning raqamli kommunikatsiyada keng qo'llanilishi talabalar orasida media savodxonlikni rivojlantirish, axborotning ishonchligini tanqidiy baholash hamda emotsional-psixologik ta'sirlarga nisbatan kommunikativ himoyalanih ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Bu esa raqamli ta'lim muhitida axborot xavfsizligi va media madaniyatini rivojlantirishning dolzarbligini tasdiqlaydi. Shunga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida onlayn muloqot strategiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni ta'lim jarayoniga tizimli integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Xususan, "Debat" texnologiyalari talabalarda argumentatsion fikrlash va ishonirish kompetensiyasini rivojlantirishga, hamkorlikka asoslangan ta'lim yondashuvi ("Collaborative learning") esa hamkorlik strategiyalarini shakllantirishga, "Case-study" metodlari esa konfliktli va manipulyativ kommunikativ vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, "Media ta'lim" treninglari talabalarni feyk axborot va manipulyativ ta'sirlardan himoyalanihga o'rgatsa, "Netiket" mashg'ulotlari raqamli etik me'yorlarga rioya qilish hamda madaniyatli onlayn muloqotni shakllantirishga yordam beradi. Mazkur pedagogik texnologiyalarni raqamli ta'lim muhitiga integratsiya qilish talabalar kommunikativ kompetensiyasini kompleks rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva M.A. "Teaching Language through Communication" // "Tarjimashunoslik: muammolar, yechimlar va istiqbollar – II" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – 2024-yil 20-noyabr.
2. Amr Asad, Ahmed Kalil, Izani Zainal va boshqalar. "Practicing Netiquette in Online Communication Between Students and Professors in Higher Education: A Systematic Review" // *Studies in Media and Communication*. – Vol. 12, No. 4. – December 2024.
3. Brook Hollister, Praveen Nair va boshqalar. "Engagement in Online Learning: Student Attitudes and Behavior during COVID-19" // *Frontiers in Education*. – Volume 7. – May 2022. – Article 851019.
4. Hairun Nissa, Irfan Dedi. "Interactive Communication Strategies in Online Learning: A Case Study" // *Dinasti International Journal of Education Management and Social Science*. – Vol. 6, No. 3. – February 2025.
5. Komilova Z.X. "Raqamli madaniyat va o'zbek tilida muloqot madaniyati" // *European Science International Conference: Modern Educational System and Innovative Teaching Solutions*.
6. Kashkin V.B. *Vvedenie v teoriyu kommunikatsii (Introduction to Communication Theory)*. – Voronezh: Izd-vo VGTU Publ., 2000. – 175 p.
7. Kurkimbayeva A.M. "The Application of Communicative Strategies in Travel Blogs".
8. Kusumadinata, Fitriah. "Strategi Komunikasi Pelayanan Publik melalui Program Pos Pemberdayaan Keluarga" // *Jurnal ASPIKOM*. – 2017. – Vol. 3, No. 1. – B. 225–238.
9. Mahmudov A.Z. "Raqamli madaniyat va ijtimoiy tarmoq ta'siri" // *Zamonaviy ta'limda fan va innovatsion tadqiqotlar jurnali*. – 2024-yil. – 2-son, 16-to'plam.
10. Mixalskaya A.K. 10–11-sinflar uchun ritorika asoslari: umumiy ta'lim muassasalari uchun darslik [Matn]. – M.: Drofa, 2002. – 496 b.
11. Sizdikbayeva A.D. "Network Communication Culture, Digital Etiquette, Online Community of University Teachers and Students: Bibliometric Mapping of the Literature" // *The Education and Science Journal*. – Vol. 27, No. 4. – 2025.
12. Xaytmayer M., Robin Shimmelfen. "Netiquette as Digital Social Norms" // *International Journal of Human-Computer Interaction*. – 2023-yil 19-mart. – ISSN: 1044-7318 (Print), 1532-7590 (Online).
13. Van Dijk. "Socio-Cognitive Discourse Studies" // *The Routledge Handbook of Critical Discourse Studies*. – Routledge, 2018. – B. 26–43.
14. Zilberova I., M. Alyayeva, F. Shurayeva va K. Petrov. "Digital Education: Cultural Aspects of Communication in the Modern Educational Environment" // *E3S Web of Conferences*. – 2021. – Vol. 273. – Article 12104.
15. Sharifova M.M. "Raqamli kommunikatsiya muhitida yoshlar axloqiy madaniyatining shakllanishi" // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*. – 2025. – Vol. 5, No. 10.
16. Дацюк С. А. Коммуникационные стратегии [Электронный ресурс] // *Центр гуманитарных технологий*. – 1999.
17. Кириллова Н. Н. Коммуникативные стратегии и тактики с позиции нравственных категорий // *Вестник НГТУ им. П. Е. Алексеева. Серия: Управление в социальных системах. Коммуникативные технологии*. – 2012. – № 1. – С. 26–33.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.